

BILIMLARNI O'ZLASHTIRISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDА MANTIQIY TARZDA IFODA ETISH

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lif metodika kafedrasи o'qituvchisi
Quvanov Zahridin*

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchilarda bilimlarni mantiqiy tarzda ifoda etish ko'nikmasini shakllantirish jarayoni tahlil qilinadi. Ushbu jarayonning ta'lif-tarbiya sifatini oshirishdagi ahamiyati, mantiqiy tafakkurning rivojlanishi hamda zamonaviy pedagogik usullar bilan uyg'unlashgan holda taqdim etish masalalari yoritiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarda fikrlashning mustaqil va tizimli bo'lishiga ko'maklashuvchi amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy ifoda, bilimlarni o'zlashtirish, mantiqiy tafakkur, pedagogik metodlar, ta'lif sifati, fikrlash ko'nikmalari.

Kirish

Bugungi kunda ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatini kuchaytirish, ularni mantiqiy ifoda etishga o'rgatish dolzarb masalalardan biridir. Ta'lif jarayonining asosiy vazifasi o'quvchiga bilimlarni nafaqat yod olishni, balki uni mantiqan tushunishni, tartibli va ravshan ifoda qilishni o'rgatishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Mantiqiy ifoda — bu fikrlarning aniq, tushunarli va tizimli holda ifoda etilishidir. Bu ko'nikma o'quvchilarning bilimlarini samarali tarzda namoyon etishida, dars materiallarini chuqur o'zlashtirishida va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mantiqiy fikrlash insonning kundalik hayotida qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. O'quvchilarda mantiqiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uchun mavhumlikning turli darajasidagi materiallarni o'z ichiga olgan turli xil o'quv qo'llanmalaridan foydalanish kerak. Birinchi bosqichda harakatlarning yo'naltiruvchi asosi sifatida muayyan predmetlar xizmat qiladi, operatsiyalar va munosabatlarning ko'rgazmali modellari sifatida esa aylanma sxemalar qo'llaniladi. Keyingi bosqichda talab qilingan mantiqiy harakatlarni bajarish uchun ko'rgazmali tayanch bo'lib xizmat qiladigan jadvallar, matriksalar, rasmlar, sxemalar, chizmalar yordamida moddiylashtirilgan real ob'ektlarning modellari ishlataladi. Uchinchi bosqichda ko'rgazmali modellarga tayanmasdan mantiqiy munosabatlarning so'zli ifodalari ishlataladi va bu bosqich didaktik materialning mavhumligi jihatdan eng yuqori bo'lib hisoblanadi. SHunday qilib, tadqiqot shuni

ko‘rsatadiki, kichik sinf o‘quvchilarining imkoniyatlari asosan ko‘rgazmali-harakatli shaklda amalga oshiriladigan faoliyatga qaraganda ancha kengroqdir. Ular murakkabroq nazariy materialni egallay olishlari mumkin, ammo buning uchun maxsus o‘qitish metodikalari talab qilinadi.

Mantiqiy mulohazalarning mustaqilligini rivojlantirish mantiqiy uslublardan (tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, muayyanlashtirish, tasniflash, umumlashtirish) foydalanishni nazarda tutadi.

Tahlil – predmetni (hodisani, jarayonni), predmetning (predmetlarning) xususiyatlarini yoki predmetlar orasidagi munosabatlarni qismlarga (belgilarga, xususiyatlarga, munosabatlarga) fikran va/yoki xaqiqiy ajratish amali. Tahlilga teskari amal sintez bo‘lib, u bilan tahlil ko‘pincha amaliy yoki bilish faoliyatida birlashtiriladi. Tahlil bilishning hissiy bosqichidayoq mavjud bo‘lib, ayniqsa, his qilish va idrok etish jarayonlariga kiradi. Insonda tahlilning hissiy-ko‘rgazmali shakllariga tahlilning eng yuqori shakli – tafakkur yoki mavhum-mantiqiy shakli qo‘shiladi. Tahlilning bir necha turlari mavjud: yaxlitni qismlarga fikran ajratish, predmetlarning umumiyligi xususiyatlari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, predmetlar sinflarini quyi sinflarga ajratish.

Sintez – tahlil orqali butunning ajratib ko‘rsatilgan komponentlarini birlashtirish, turli elementlar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarni aniqlash. Sintez jarayonida o‘rganilayotgan ob’ekt ajratilgan elementlarini birlashtirish, bog‘lash sodir bo‘ladi. Sintezning fiziologik asosini bosh miya po‘stlog‘idagi nerv vaqtinchalik aloqalarning tutashishi tashkil qiladi. Sintez – predmetning turli xil elementlari, jihatlarini yagona butunlikka (tizimga) birlashtirish bo‘lib, amaliy faoliyatda va bilish jarayonida amalga oshiriladi. Sintez natijasi – butunlay yangi hosila. Nazariy sintez ostida B.M. Kedrov “ilmiy bilishning ilgari ajralgan tarmoqlari yoki elementlarini birlashtirish va bog‘lashga qaratilgan jarayonlar”ni tushunadi. “Har qanday sintez uning zaruriy tarixiy va bilish (mantiqiy) sharti sifatida oldingi tahlilni nazarda tutadi”. Tahlil va sintezning tabiatini hamda tahlildan sintezga o‘tish shakli turlicha bo‘lishi mumkin, ammo bilish jarayonining boshida tadqiqot predmeti doimo bevosita berilgan, bo‘linmagan narsa sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu predmetni bilish uchun uni qismlarga bo‘lish, uning alohida jihatlarini mavhum lahzalar sifatida ajratib olish (tahlil qilish) zarur, bunda o‘rganilayotgan predmetga ichki yaxlitlik beradigan va uning barcha jihatlari birligini belgilaydigan tabiiy aloqalar sun’iy ravishda (fikran yoki haqiqatda) buziladi va hatto butunlay uziladi. Tafakkurning tahlil-sintez jarayonlarini quyidagicha ochib beriladi: tahlil bosqichi (A) o‘zining rivojlangan shaklida darhol paydo bo‘lmaydi, balki dastlab uning boshlang‘ich holatida (a) paydo bo‘ladi. Bu holatning (a) o‘ziga xosligi tahlilni sintezdan to‘liq ajratilganligi, sintezning hatto elementlari (murtaklari) yo‘qligidan iborat. Tahlil rivojlangan shaklga (A) etib kelganida u uning natijalarining to‘g‘riligini tekshirish maqsadiga xizmat qiladigan boshlang‘ich sintez uslublari (S) bilan to‘ldirila

boshlanadi, shuning uchun tahlil bosqichida allaqachon mavjud bo‘lgan sintez elementlari ustivor tahlilga to‘liq bo‘ysunadigan bo‘lib chiqadi. Keyinchalik, sintez etarli darajada rivojlanganidan so‘ng, u dastlab tahlil bilan yagona bilish, fikrlash jarayonga hali birlashmaydi, balki ma’lum vaqt davomida tahlilning bir tomonlama rahbarligidan erkin bo‘lgan, lekin o‘zining ustivor holatiga ega bo‘lmagan holda u bilan tashqi birlashadi. Bu holatni A + S deb belgilash mumkin. Nihoyat, yuqori sintez bosqichida rivojlangan tahlil bu safar ustivor holatni egallagan sintezga bo‘ysunishga o‘tadi. Predmetni tahlil qilish jarayonida uning eng muhim, ahamiyatli, qiziqarli bo‘lgan ayrim jihatlari ayniqla kuchli qo‘zg‘atuvchi bo‘lib chiqadi va shuning uchun faol qo‘zg‘alish jarayonini keltirib chiqarib (birinchi navbatda, bosh miya po‘stlog‘ida) oldingi planga chiqadi va induksiya fiziologik qonuniga ko‘ra aynan shu predmetning kuchsiz qo‘zg‘atuvchisi bo‘lgan boshqa jihatlarini tabaqlashtirishni to‘xtatadi. SHunday qilib, tahlilning ruhiy jarayonining fiziologik asosi bo‘lib bosh miyaning yuqori bo‘limlaridagi qo‘zg‘alish va to‘xtatishning ma’lum nisbati chiqadi.

Tahlil – vogelikning qismlari, predmetlari yoki hodisalarini ularni yanada to‘liqroq va chuqurroq o‘rganish va shu orqali ushbu predmetlar va hodisalarini yaxlit bilish maqsadida ularning jihatlari va xususiyatlari bo‘yicha, shuningdek, ular o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarni maqsadli aniqlash jarayonidir. O‘quvchilarning analitik tafakkuri predmetlarni elementar tahlil qilishdan chuqur tahlil qilishgacha rivojlanadi. Predmet yoki hodisaning faqat ba’zi elementlari analitik ko‘rib chiqiladi (tahlil davomida butunning qismlari o‘zining xususiyatlari va ular orasidagi munosabatlari bilan bir-biri bilan bog‘liq holda qisman ajratiladi). O‘quv materialini o‘rganishning yuqori bosqichida butunning qismlari majmuasi tahlil qilinadi (kompleks tahlil – buning natijasida o‘quv materialini o‘zlashtirish etarlicha boyitiladi). Kompleks tahlil odatda keng qamrovli, ammo har tomonlama bo‘lmay, predmet yoki hodisa haqida ma’lum bir tizimda emas, balki faqat ma’lum belgilar va xususiyatlar yig‘indisida bilim beradi.

Analiz va sintez doimo o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ular orasidagi ajralmas birlik taqqoslashning bilish jarayonidayoq namoyon bo‘ladi. Atrofdagi dunyo bilan tanishishning dastlabki bosqichlarida turli ob’ektlar, avvalo, taqqoslash orqali bilinadi. Ikki yoki undan ortiq predmetlarni har qanday taqqoslash ularni bir-biri bilan qiyoslashdan yoki o‘zaro bog‘liqligini aniqlashdan (sintez) boshlanadi. Ushbu sintez amali davomida taqqoslanadigan hodisalar ajratib ko‘rsatilishi, umumiyligi va farqlanadigan jihatlar, predmetlar, hodisalar izlanadi (tahlil). SHunday qilib, “tahlilning bir tomonlamadan har tomonlamagacha rivojlanishi bir qator murakkablashib boradigan tahlil turlari: bataysil tahlil, so‘ngra elementar yoki qisman, so‘ngra kompleks va tizimli tahlil orqali amalga oshiriladi”.

Elementar sintez jamlovchi sintez bo‘lib, uning natijasida qismlar birlashib, ularning yig‘indisini tashkil qiladi. O‘rganilgan savollarni sanab o‘tish shaklida

o‘tilgan materialni takrorlash jamlovchi sintez misoli bo‘la oladi. Haqiqiy sintez qismlarni yaxlitga mexanik birlashtirish bo‘lib hisoblanmaydi, balki ma’lum va o‘ziga xos fikrlash faoliyati sifatida yangi natijani, voqelik haqida ma’lum bir yangi bilimni beradi.

Xulosa

O‘quvchilarning mantiqiy ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu ko‘nikma o‘quvchilarni faqat bilim olishga emas, balki bilimni tahlil qilish va amalda qo‘llashga yo‘naltiradi. Bu esa ularga kelajakda hayotiy faoliyatning turli sohalarida muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Vygotskiy L.S. – *Bolalar tafakkurining rivojlanishi*.
2. Dewey J. – *Ta’lim va pedagogika falsafasi*.
3. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari bo‘yicha ilmiy maqolalar.